

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yil yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyatining ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) ning hajmi 16 316,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020 yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 4,8 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,1 foizga etdi.



### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2020 yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2020 yil yanvar-iyun	2021 yil yanvar-iyun	
	<b>I. YaHM</b>	<b>13 542,1</b>	<b>16 316,5</b>	<b>104,8</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 047,9	15 713,5	104,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	494,2	603,0	104,6
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>13 047,9</b>	<b>15 713,5</b>	<b>104,8</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>5 137,6</b>	<b>6 353,7</b>	<b>100,5</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 760,5</b>	<b>4 234,0</b>	<b>103,0</b>
	sanoat	2 536,3	2 713,5	100,3
	qurilish	1 224,2	1 520,5	108,5
	<b>Xizmatlar</b>	<b>4 149,8</b>	<b>5 125,8</b>	<b>111,6</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	956,7	1 198,7	112,2

		Mlrd. so‘m		2020 yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2020 yil yanvar-iyun	2021 yil yanvar-iyun	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	706,8	961,8	121,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 486,3	2 965,3	108,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 8 355,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 foizga yuqoridir.



### Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o‘shish sur‘atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,3 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 foizini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 40,4 foizni, sanoat tarmog‘ining ulushi 17,3 foizni, qurilish sohasida 9,7 foizni va xizmatlar sohasi 32,6 foizni tashkil qildi.

 <b>Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)</b>			
		<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>
<b>I. YaHM</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shujumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	96,4	96,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,6	3,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	<b>39,4</b>	<b>40,4</b>
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)		<b>28,8</b>	<b>27,0</b>
	sanoat	19,4	17,3
	qurilish	9,4	9,7
<b>Xizmatlar</b>		<b>31,8</b>	<b>32,6</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7,3	7,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,4	6,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	19,1	18,9




## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil




2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 100,5 foiz (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi (40,4 foiz), sanoatda 100,3 foiz (17,3 foiz), qurilishda 108,5 foiz (9,7 foiz), xizmatlar sohasida 11,6 foizni (32,6 foiz) tashkil etdi.


**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021 yil yanvar-iyungacha YaHM deflyatori indeksi 2020 yil yanvar-iyundagi narxlarga nisbatan 115,0 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 123,0 foiz va qurilishda 114,5 foiz qayd etildi.



## Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## Yanvar-iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 73,7 % ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-iyunida – 72,5 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.